

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.Nasritdinova</b>	
Artpedagogikaning bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatları rivojidagi imkoniyatlari .....	312
<b>G.Mo'minova</b>	
Universitet talabalarining so'z o'rganish strategiyalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyasini rivojlantirish .....	390
<b>N.Mamatqulova</b>	
Ta'llimda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari .....	321
<b>U.O'rishov</b>	
Estrada jaz musiqasi evolyutsiyasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	325
<b>S.Uraimov</b>	
Maktabda gipertermiya sharoiti orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish .....	331
<b>I.I.Toshpulatov</b>	
Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi .....	334
<b>F.U.Mirjavharova</b>	
Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	337
<b>M.Y.Isaqov, D.R.Tojiboyev</b>	
O'tloqi-voha tuproqlari tarkibidagi mikroelementlar tahlili va biologik singdirish koeffitsiyenti. ....	341
<b>I.I.Muhitdinov</b>	
Jinoyat geografiyasi va uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari .....	346
<b>T.X.Tashmetov</b>	
Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari .....	350
<b>D.B.Makhametova</b>	
Ta'llimdagи muqarrar yangi media .....	355
<b>A.T.Akbarov</b>	
Oilada kattalar sportini tashkillash.....	359
<hr/>	
<b>FANIMIZ FIDOYILARI</b>	
<b>O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik</b>	
<b>Sayyora Sharafovna Rashidovaning 80 yilligiga .....</b>	364

**ARTPEDAGOGIKANING BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARI IJODKORLIK  
QOBILIYATLARI RIVOJIDAGI IMKONIYATLARI**

**ВОЗМОЖНОСТИ АРТПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ  
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**OPPORTUNITIES OF ARTPEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS  
OF FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS**

**Nasritdinova Madina Nurullayevna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Nasritdinova Madina Nurullayevna**

– Farg'ona davlat universiteti musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi.

**Annotatsiya**

*Mazkur maqola pedagogika sohasining bir qismi deya tan olingen zamonaviy ta'lim ko'rinishi bo'lgan artpedagogika vositasida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatini, ularning tafakkurini rivojlantirish uslublariga bag'ishlanadi. Shuningdek, artpedagogika vositasida musiqa ta'limi faoliyatini san'at sohasida yuqori darajadagi bilimga ega bo'lgan talabalarning o'ziga xos xususiyatini ijodiy san'at bo'yicha tizimlashtirilgan natijalarini ko'rishga kasbiy tayyorligini shakllantirishning uslubiy yondashuvlarini tavsiflanishi nazarda tutiladi.*

**Annotatsiya**

Данная статья посвящена способам развития творческих способностей и мышления будущих учителей музыки посредством артпедагогики, которая является современной формой образования, признанной частью педагогической науки. Также предполагается методические подходы формирования профессиональной готовности студентов с высоким уровнем знаний в области искусства видеть систематизированные результаты творческой деятельности.

**Abstract**

*This article is devoted to the ways of developing creativity and thinking of future music teachers through artpedagogy, which is a modern form of education recognized as a part of the field of pedagogy. It is also supposed to describe the methodological approaches to the formation of the professional readiness of students with a high level of knowledge in the field of art to see the systematized results of creative activity.*

**Kalit so'zlar:** Pedagogika, artpedagogika, ta'lim vositasi, musiqiy ta'lim, idrok, tafakkur, bilim, malaka, model, zamonaviy ta'lim uslubi.

**Ключевые слова:** Педагогика, артпедагогика, средство обучения, музыкальное образование, восприятие, мышление, знание, умение, модель, современная методика обучения.

**Key words:** Pedagogy, artpedagogy, educational tool, musical education, perception, thinking, knowledge, skill, model, modern educational method.

**KIRISH**

Estetik tarbiya maktabdagi pedagogik faoliyatning asosiy yo'naliishlaridan biridir. "Estetika" ("aisthetikos") atamasining ma'nosи yunoncha "hisli" degan ma'noni anglatadi. XVIII asr nemis faylasufi A.G.Baumgarten hissiy bilish haqidagi fan, ya'ni estetikaga asos soldi va "estetik" atamasining zamonaviy ma'nosini ilmiy muomalaga kiritdi.

Zamonaviy pedagogika estetik tarbiyani madaniyatli shaxsnинг таркиби qismlaridan бирини deb hisoblaydi. Pedagogik ensiklopediyada "estetika" atamasiga bu - "shaxsnинг estetik, hissiy-sezgi va qadriyat ongini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni va unga mos keladigan faoliyatdir" deya ta'rif berilgan[1,26]. Ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, artpedagogika g'oyalari ommalashayotgani, shuningdek, mакtab o'quvchilari, hozirgi avlodini tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarni aniqlashga e'tibor kuchayayotgani kuzatilmоqda. Bu maqsadlarga erishishga intilish zamonaviy ta'lim tizimining yaratuvchi va yarata oladigan o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishga qaratilganligi bilan bog'liqdir.

XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi o'tish davri jamiyat ongidagi tub o'zgarishlar bilan tavsiflanadi, bu esa ta'larning yangi falsafasini belgilab beradi. Zamonaviy ta'larning yetakchi yo'naliishlaridan бирини pedagogik bilimlarni boshqa fanlar yutuqlari bilan uzviy bog'lash va boyitish zaruratidadir. Mavjud ilmiy-nazariy ishlanmalarni tahlil qilar ekanmiz, ularda keltirilgan uslubiy, mazmunli va protsessual ko'rsatmalar ilmiy integratsiyani davomiyligini ta'minlash va ijodiy izlanish uchun bo'shliq qoldiradi, degan xulosaga kelamiz. Ushbu bo'shliqning kengligi olimlarning

ishlanmalarida shakllantirilgan mavjud ilmiy yechim va amalga tatbiq etishni talab qiladigan vazifalar, birinchi navbatda, zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish masalalari bilan belgilanadi.

Zamonaviy sharoitda mahalliy ta'lif jiddiy inqirozni boshdan kechirmoqda, uning chuqurligi va tahdidli tabiat:

O'zbekiston aholisining kattalar, o'smirlar va bolalar ma'naviyatining keskin pasayishi; bugungi yoshlarning salmoqli qismining pragmatik-utilitar g'arb, Amerika hayot modeliga yo'naltirilishi, milliy madaniy qadriyatlar va an'analarni yo'q qilish va unga qiziqishning pasayishi;

- mamlakatimiz hududida yashovchi avlodlar o'tasidagi ziddiyatning kuchayishi; bir asrda ikki bir-biriga zid davlat tuzumida dunyoqarashi shakllangan avlodlarning ta'lif-tarbiya borasidagi dunyoqarashining mos kelmasligi; yosh avlod ongida axloqiy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi, boylik, o'yin-kulgiga bo'lgan intilishning ortishi, bir kun bilan yashash sterlioti, jazosiz qolish;

- pedagogik "xavf zonasasi" chegaralarini ishg'ol etib borilishi; xulq-atvorda normalari buzilishi, tajovuzkorlik, giyohvandlik va voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikining o'sishi; jamiyatda bolalarning mentalitet xususiyatlari, ota-onalarning moddiy boyliklariga va boshqalarga ko'ra qat'iy tabaqalanishga ongli intilishi;

- yosh avlodni tarbiyalash masalalari bo'yicha pedagogik jamoaning o'zida yagona (yoki uslubiy va mazmunan yaqin yondashuvlar bo'yicha o'xshash) yondashuvning yo'qligi ko'rsatkichlarda o'z aksini topmoqda.

Tadqiqotchi olimlarning (X.X.Batchayeva, O.S.Bogdanova, L.I.Bojovich, V.V.Davidova, A.A.Lublinskaya, B.C.Muxina, D.B.Yelqosh, Y.K.Yaglovskaya) fikr-mulohazalarini o'rganar ekanmiz, zamonaviy ta'limda o'quvchilarini estetik tarbiyalash jarayonining asosini har safar rasm chizish, raqsga tushish, qo'shiq kuylashda insonning ichki holatini tashqi dunyoda aks ettirishga bo'lgan intilish tashkil etilishi diqqatga sazovordir. Shu sababli ta'lif jarayoni estetik tarbiya asosida olib borilishi kerak. Bolani san'at olami bilan tanishtirish orqali uning barkamol rivojlanishi, estetik didni rivojlantirish, uning umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishishi, go'zallikni idrok etish va qadrlash qobiliyati shakllanadi, bolaning ijodiy faolligini rag'batlantirishga erishiladi.

XXI asr estetik madaniyatning umumiy darajasining sezilarli darajada pasayishi bilan tavsiflanadi, bu "o'zgarishlar davri"ning haddan tashqari cho'zilishi va ko'p yo'nalishli ta'lif usullari samaradorligining pasayishi bilan bog'liq. Bu esa, artpedagogikani quyidagicha ko'rib chiqish zaruriyatiga olib keladi:

- pedagogika fanining yo'nalishi, uning maqsadi san'at vositalarini jalb etgan holda shaxsni tarbiyalash va takomillashtirish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat;
- muktab o'quvchilarining ijodiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan innovatsion texnologiya.

Artpedagogika sohasi ommalashishining boshlang'ich bosqichida jadallab bormoqda, shuning uchun u hali ham kam o'rganilgan bilim sohalaridan bo'lib qolmoqda. Buning oqibatida esa artpedagogika konsepsiyasining o'ziga xos turli talqinlarining paydo bo'lishi, shuningdek, uni ilmiy fan sifatida tavsiflash jarayonida noaniqliklar paydo bo'lmoqda.

Artpedagogika pedagogika va san'at uyg'unligiga asoslangan pedagogika fanining tarmog'i hisoblanib, san'at orqali shaxsning ta'lif va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi[2,19].

Artpedagogika nazariya va amaliyotni umumlashtiradi, san'at va badiiy-ijodiy faoliyat orqali odamlarning badiiy rivojlanish jarayoni nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini va shaxs madaniyatining asoslarini shakllantirishni ta'minlashga mas'ullik qiladi.

Yangi O'zbekiston jamiyatining bunday inqirozli holati birinchi navbatda, yosh avlod, ya'ni bolalar va talabalarning ta'limi fundamental asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ushbu ijtimoiy guruhlar, davlatimiz kelajagi, uning rivojlanishini, tarixiy va madaniy merosining davomiyligini ta'minlaydigan strategik resursi bo'lganligi sababli milliy-davlat manfaatlarining obyekti hisoblanadi.

Boshqa tomondan, yuqorida qayd etilgan yosh davrlarining tarbiyaviy ahamiyati intensiv ijtimoiylashuv holati, qadriyatlar tizimini shakllantirish, barqaror shaxsiy fazilatlar va o'z-o'zini anglash bilan tavsiflanadi.

Bolalar va o'smirlar o'qituvchi shaxsini, uning professionalligini e'tirof etsalar kifoya, maqsadga yo'naltirilgan ta'lifiy-tarbiyaviy jarayonga tez moslashish xususiyatiga egalar. Shuning

uchun bu ijtimoiy guruhlar an'anaviy ravishda o'qituvchilar kasbiy faoliyatining asosiy obyekti sifatida belgilanadi. Barcha tarbiyaviy ta'sirlar o'quvchilar ongiga yo'naltirilganligi va insonning tashqi muhit reaksiyalari, albatta, uning tafakkuri belgilanadigan hosilalar ekanligiga asoslanadi.

Binobarin, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlari, kreativligini rivojlantirish muammosi olimlar tomonidan global ma'naviy inqiroz holati sifatida tavsiflangan zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan bog'liq holda alohida dolzarblik kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Pedagogika va psixologiyada shaxsning semantik sohasiga qiziqish tobora ortib borayotgani bejiz emas. "Ma'no" tushunchasining mazmunini ochishga birinchi urinish A.N. Leontyev tomonidan amalga oshirilgan[1,13]. Olimning fikricha, ma'no faoliyat motivining maqsadiga munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

Zamon allaqachon o'zgardi, uning talablari u bilan birga o'sib borayotgan bir pallada ta'lim berish shakli, usullari eskiligidcha qolib ketmoqda. Albatta, barcha yangi tendensiyalar asos, ya'ni eskinining ustiga quriladi, lekin uning mukammallahib borayotgani ta'limning zamon, jamiyat buyurtmasiga asosan mobillashishidadir.

Bo'lajak musiqa ta'limi O'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotini shakllantirish MDH davlatlari olimlari X.X.Batchayeva, O.S.Bogdanova, L.I.Bojovich, V.V.Davidova, A.A.Lublinskaya, B.C.Muxina, D.B.Yelqosh, Y.K.Yaglovskaya va boshqalarning tadqiqot obyektiga aylandi. Miamlakatimiz miqyosida olim-tadqiqodchilarimiz Z.T.Hasanov, D.M.Mallayev, D.V.Grigorev, I.I.Zaretskaya, A.Y.Smetanina, E.V.Taranova va boshqalarning fikriga ko'ra, yoshlar befarqligining sababi qadriyatlarni saqlash, ularga yetkazish usuli sifatida madaniyatdan begonalashuvdan kelib chiqadi va bu yosh avlodda yaxshilik va yomonlik tushunchasining o'zgarishiga olib keladi. Y.P.Azarov, A.S.Gordin, V.I.Petrova, E.A.Yamburglarning fikricha, ommaviy madaniyatning faol obsessiv tashviqoti madaniy yodgorliklardan mahrum bo'lgan "to'liq begonalashish jamiyatini"ni yaratishga yordam beradigan omil sifatida qaraladigan ilmiy pozitsiya mavjud[3,47].

Olimlardan V.P.Anisymov, S.S.Brikunov, O.S.Bulatova, E.A.Medvedeva, C.B.Starikova, Y.S.Shevchenko, N.Y.Shumakova va boshqalar məktəb o'quvchilarini tarbiyalashda san'atning axloqiy imkoniyatlariga e'tibor qaratdilar. N.Y.Sergeyeva, J.S.Valeyevalar tadqiqotlarda shaxsni ijtimoiylashtirish va bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida badiiy pedagogika shaklidagi ijod usullaridan foydalanganlar. O'qituvchilarning vatanparvarlik tarbiyasiga kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda badiiy pedagogikaning asosiy vositalari M.V. Guzeyev tadqiqotida o'z aksini topgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Shunga qaramasdan, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan noxush voqeliklar, statistik ma'lumotlar tahlillari natijasiga ko'ra maktab faoliyati amaliyotida san'atning ijodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalaniilmayotgani qayd etilmoqda.

Artpedagogikaning paydo bo'lishi natijasida pedagogika va san'at integratsiyasining yangi yo'nalishi sifatida belgilangan vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaydi. Shunga ko'ra, bir necha xil san'at turlarining shaxsga tarbiyaviy ta'sirni qo'llashni integratsiyalashuviga asoslangan artpedagogikani ilmiy-pedagogik yo'nalish sifatida ko'rib chiqish muammolari, ularning asosiy mexanizmi badiiy tasvirlarni hissiy idrok etish san'atda jamlangan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish dolzarb bo'lib qoladi.

Bo'lajak musiqiy ta'lim O'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga artpedagogikani joriy etilishi, uning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana bilish, amaliyotga joriy etilishi o'sib kelayotgan Yangi O'zbekiston yoshlari tafakkurining rivojlanishi, atrof-muhitda bo'lib turgan voqeliklarga ongli ravishda shaxsiy munosabat hosil qila olish kabi zaruriy hayotiy bilimlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Artpedagogika yoki san'at vositasidagi ta'lim jarayoni – O'quvchi shaxsining erkin ijodiy munosabatlarini shakllantirishga hissiy jihatdan boy muhit yaratishga hissa qo'shadigan innovatsion pedagogik texnologiya san'at yordamida shaxsga ta'sir qilishning noan'anaviy yondashuv dasturidir.

Artpedagogikaning mazmun-mohiyati o'quvchi shaxsini san'at vositalari orqali tarbiyalash va rivojlantirish, badiiy madaniyat asoslarini o'zlashtirish va badiiy faoliyatning turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashdan iborat.

## XULOSA

San'atning tarbiyaviy salohiyatini va artpedagogikaning ushbu yo'nalişlarining har birini aniqlash, uning ijodiy salohiyatidan, badiiy, intellektual va boshqa xususiyatlardan qat'iy nazar, har bir o'quvchi tarbiyasida foydalanish mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi. San'at har bir maktab o'quvchisi shaxsining ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan qulay ta'lif muhiti sifatida qaralishi kerak. Shu bilan birga, badiiy ijod vositalari va texnologiyalari qo'shimcha mexanizm sifatida emas, balki u axloqiy tarbiyaning mazmuni, vositalari va texnologiyalari bilan birlashtirilishi zarur.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: АПН РСФСР, 1959.,13-б. (1. Leontiev A.N. Problems of the development of the psyche. - M.: APN RSFSR, 1959., 13-p.)
2. Уматова А.У. Искусство как средство нравственного воспитания младших школьников. // Вестник ИГЛУ. - Пятигорск, 2012 - №4 - С. 237- 240. (0,25п.л.) (Входит в перечень издааний, рецензируемых ВАК РФ).,() 2. Umatova A.U. Art as a means of moral education of younger students. // Vestnik ISLU. - Pyatigorsk, 2012 - No. 4 - P. 237-240. (0.25 p.l.) (Included in the list of publications peer-reviewed by the Higher Attestation Commission of the Russian Federation).
3. Е.В.Таранова., Методология артпедагогики в контексте современных междисциплинарных исследований образования.,Научный вестник. –М, 2017 – 47 с.( 3. E.V. Taranova., Methodology of art pedagogy in the context of modern interdisciplinary research in education., Scientific Bulletin. -M, 2017 - 47 р.)
4. Асмолов А.Г. Психология личности: Принципы общепсихологического анализа: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. Рек. Мин. обр. РФ. — 2-е изд., перераб. / А.Г. Асмолов. М.: Смысл; Академия, 2002.( 4. Asmolov A.G. Psychology of Personality: Principles of General Psychological Analysis: A Textbook for Students. higher textbook establishments. Rec. Min. arr. RF. - 2nd ed., revised. / A.G. Asmolov. M.: Meaning; Academy, 2002.)
5. Насритдинова, М. Н. (2022). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСЦЕЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С ПАТОЛОГИЕЙ, СВЯЗАННЫХ С ГИПОКСИЕЙ, ПОСРЕДСТВОМ ИСКУССТВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 385-393. (5. Nasritdinova, M. N. (2022). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF HEALING CHILDREN WITH PATHOLOGY ASSOCIATED WITH HYPOXIA THROUGH THE ARTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 385-393.)
6. Насритдинова, М. Н. (2022). МУСИҚА ИНСОНИЯТГА НИМА УЧУН КЕРАК?. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 577-580. (Nasritdinova, M. N. (2022). WHAT DOES HUMANITY NEED MUSIC FOR?. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 577-580.)
7. Jo'Rayev Xamidjon, & Madina Nasritdinova (2022). DOIRA CHOLG'USIDA IJRO MAHORATINI YUKSALTIRISH (BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI MISOLIDA). *Science and innovation*, 1 (C2), 26-28. doi: 10.5281/zenodo.663646 (7. Jo'Rayev Khamidjon, & Madina Nasritdinova (2022). IMPROVING THE PERFORMANCE SKILLS IN A CIRCLE INSTRUMENT (IN THE EXAMPLE OF CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS). *Science and innovation*, 1 (C2), 26-28. doi: 10.5281/zenodo.663646)
8. Nasritdinova, M. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИНИНГ ЯНГИ ТАРАҚКИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАР БАДИЙ-ЭСТЕТИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B6), 950-955. (Nasritdinova, M. (2022). SOCIO-PHILOSOPHICAL FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ARTISTIC AND AESTHETIC CULTURE AT THE NEW DEVELOPMENT STAGE OF UZBEKISTAN SOCIETY. *Science and innovation*, 1(B6), 950-955.)
9. Nasritdinova, Madina (2023). ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANТИРИШНИНГ PEDAGOGIK MODELI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 199-204. (Nasritdinova, Madina (2023). PEDAGOGICAL MODEL OF MORAL EDUCATION DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS ON THE BASIS OF ARTPEDAGOGICAL APPROACH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 199-204.)